



XABARLAR

ZUDLIK BILAN TARQATISH UCHUN 2017-yil 7-mart

Qo'shimcha ma'lumot olish uchun bog'laning:
Jonathan Burman yoki Jeanne Beattie
(518) 474-1201
www.nysed.gov

BUNDAN BUYON "IMMIGRANT O'QUVCHILARNING HUQUQLARI TO'G'RISIDA"GI YO'RIQNOMA VA "BARCHA O'QUVCHILARNING QADR-QIMMATI TO'G'RISIDA"GI QONUN 20 TILDA MAVJUD

Yaqinda chiqarilgan "Barcha o'quvchilarning qadr-qimmati to'g'risida"gi qonun va immigrant o'quvchilarning huquqlari to'g'risidagi yo'riqnoma bundan buyon Nyu-York shtatida eng ko'p so'zlashiladigan 20 ta tilda mavjud, deya bugun shtatning ta'lim komissari MaryEllen Elia e'lon qildi. Butun mamlakat bo'ylab qo'rqitish, kamsitish va ta'qib qilishga oid xabarlar ko'payib ketayotgani hamda federal hukumat tomonidan yaqinda sodir etilgan hatti-harakatlar oqibatida paydo bo'lgan qo'rquv va sarosimaga javoban shtatning Ta'lim departamenti Bosh prokuratura bilan hamkorlikda ushbu muhim mavzular bo'yicha yo'riqnoma tayyorladi. Endi ota-onalar, vasiylar va boshqa qiziqqan kishilar ushbu o'ta muhim yo'riqnomadan ko'proq foydalana boshladi.

"Hammamiz birlashsak, o'quvchilarimiz va maktab hamjamiyatlarimiz maktab muhitida o'zini xavfsiz his qilishiga ishonch hosil qilamiz", dedi universitet rektori Betty A. Rosa. "Biz o'quvchilar irqi, etnik mansubligi, uyda so'zlashadigan tili, immigratsiya maqomi, jinsiy mayli yoki yana boshqa sabablardan qat'iy nazar, erkin o'qib o'rganadigan ta'lim boshpanalari bilan ta'minlash maburiyatimizga sodiq ekanimizni yana bir karra tasdiqlashimiz shart. Biz barcha bolalarni, xuddi o'z farzandlarimizday, mehr va rahmdillik bilan bag'rimizga bosishimiz shart".

"Nyu-York shtatining Ta'lim departamenti o'quvchilarimiz har kuni qatnaydigan maktab muhitiga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan har qanday hatti-harakatga o'ta jiddiy munosabat bildiradi", dedi komissar Elia. "Barcha o'quvchilarning bepul ta'lim olish huquqi bor va hech bir bola maktabga borishdan qo'rqmasligi kerak. Biz xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi o'qib-o'rganish muhiti yaratish, jumladan, barcha ota-onalar va vasiylarni o'zlari va farzandlarining huquqlari haqida ma'lumot oladigan resurslar bilan ta'minlash uchun qo'limizdan kelgan barcha ishlarni qilishimiz kerak".

Departament ota-onalar, vasiylar va boshqa qiziqqan shaxslar uchun Nyu-York shtatidagi eng ko'p so'zlashiladigan o'nta tildagi resurslarni foydalanish uchun chiqardi. Ular: Ispan, xitoy, arab, bengal, rus, urdu, Gaiti kreolchasi, fransuz, karen and nepal tillarida. Bu Nyu-York shtati Bosh prokuraturasi bilan hamkorlikda o'quvchilarning huquqlari qonunchilikda nazarda tutilgan darajada to'liq himoyalanganini ta'minlash maqsadida amalga oshirilayotgan ishlarga taalluqlidir va ularga tayanadi.

Tarjima qilingan materiallarga yaqinda bosh prokuror Eric T. Schneiderman va komissar Elia chop ettirganlari kiradi va ular immigrant bolalarning Nyu-Yorkdagi davlat maktablariga jazolanish qo'rquvisiz kelib-ketishini kafolatlaydigan amaldagi shtat va federal qonunlarga amal qilish burchi haqida maktab okruglariga eslatmadir. Yo'riqnomada okruglar uchun ularning qonun bo'yicha o'quvchilari va o'quvchilarga oid ma'lumotlarning maxfiyligi belgilab qo'yilgan burchlari haqida tegishli ma'lumotlar keltirilgan.

Bundan tashqari, maktab xodimlari, o'quvchilar va ota-onalar ta'qib qilish, qo'rqitish va kamsitish singari noxush hodisalar haqida xabar berishi va ularni bartaraf etishi, shuningdek, DASA qonuniga asosan, maktablarda ijobiy muhit yaratish va uni qo'llab-quvvatlash borasidagi sa'y-harakatlarni kuchaytirishga yordam berishga oid yo'riqnoma va resurslardan foydalansa bo'ladi.

[Ushbu materallarni mana bu yerdan 20 ta tilda topish mumkin.](#)

[Immigratsiyaga tegishli amallar to'g'risidagi ma'lumotlarni mana bu yerdan topish mumkin, ayni paytda DASA qonuniga oid resurslarni mana bu erdan topish mumkin.](#)